


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



2024-yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi



Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Dastlabki ma'lumotlar


➤ 2024-yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 56,4 % ni tashkil etdi.

➤ Kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga 9,4 birlikni tashkil qildi.

➤ 2024-yilning yanvar-martida 1 063 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 foizga kam.



2024-yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 9 058 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 567 ta, sanoatda 5 073 ta, qurilishda 1 968 ta, yashash va ovqatlanishda 1 276 ta, tashish va saqlashda 874 ta tashkil etilgan.

Yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2023-y.	2024-y.	Farqi (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	27 230	23 755	-3 475
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	1 066	1 005	-61
<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushlari:</i>				
YAHM	%	62,5	56,4	-6,1
Sanoat	%	33,3	21,8	-11,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,5	96,9	-0,6
Investitsiya	%	72,1	68,9	-3,2
Qurilish	%	98,4	94,5	-3,9
Chakana savdo	%	92,5	93,5	0,5
Xizmatlar	%	65,7	66,2	0,5
Yuk tashish	%	96,0	96,2	0,2
Yuk aylanmasi	%	75,0	77,9	2,9
Yo'lovchi tashish	%	94,9	97,1	2,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	93,5	94,8	1,3
Eksport	%	35,4	37,1	1,7
Import	%	10,3	18,1	7,8



2024-yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHM va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da


YAHM 56,4 %	Savdo 93,5 %
Sanoat 21,8 %	Qurilish 94,5 %
Investitsiya 68,9 %	Eksport 37,5 %
Xizmatlar 66,2 %	Import 18,1 %

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	(+;-)
Andijon viloyati	1 066	1 005	-61
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	239	212	-27
Xonobod sh.	7	18	11
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	76	62	-14
Andijon	133	98	-35
Baliqchi	56	58	2
Bo'ston	41	44	3
Buloqboshi	37	47	10
Jalaquduq	34	35	1
Izboskan	60	61	1
Ulug'nor	37	36	-1
Qo'rg'ontepa	52	66	14
Asaka	93	70	-23
Marhamat	50	56	6
Shahrixon	59	70	11
Paxtaobod	42	21	-21
Xo'jaobod	50	51	1



2024-yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



2024-yilning yanvar-mart oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 21,1 %, Andijon tumani 9,8 %, Asaka tumani – 7,0 %, Shahrixon tumani -7,0 %, Qo'rg'ontepa tumani – 6,6 %, Oltinko'l tumani – 6,2 % va Izboskan tumani – 6,1 % ga tegishli.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda**

	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	farqi (+;-)
Jami	1 066	1 005	-61
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	83	55	-28
Sanoat	240	235	-5
Qurilish	68	59	-9
Savdo	449	416	-33
Tashish va saqlash	50	33	-17
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	38	59	21
Axborot va aloqa	27	24	-3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	26	28	2
Boshqa faoliyat turlari	85	96	11


Ma'lumot uchun: 2024-yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'ringa ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda

	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Andijon sh.	239	212	-27
Andijon t.	133	98	-35
Asaka t.	93	70	-23
Shahrixon t.	59	70	11
Qo'rg'ontepa t.	52	66	14
Oltinko'l t.	76	62	-14
Izboskan t.	60	61	1
Baliqchi t.	56	58	2

2024-yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida - 212 tani tashkil etdi.



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda (yanvar-mart)






2024-yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 7 birlikni tashkil etdi.



Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni

(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*




2024-yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida 13,5 birlik, Xonobod shahrida 9,2 birlik, Xo'jaobod tumanida 8,6 birlik, Ulug'nor tumanida 9,2 birlik, Bo'ston tumanida 10,2 birlik, Andijon tumanida 7,0 birlikni tashkil etgan. Qo'rg'ontepa tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 4,5 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2023-2024-yillarning yanvar-martida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)*




2024-yil yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan viloyat bo'yicha 7,0 birlikni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda pasayish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xo'jaobod tumanida 2,4 birlikka, Xonobod shahrida 2,6 birlikka, Baliqchi tumanida 2,1 birlikka kamaygan. Ulug'nor tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 0,4 birlikka pasaygan.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda).*



2024-yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan kichik biznes subyektlari soni eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda*



Faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko‘rsatkich

- Andijon shahri
- 22,2 birlik

O‘rtacha ko‘rsatkich

- Jalaquduq tumani
- 9,4 birlik

Eng past ko‘rsatkich

- Shahrixon tumani
- 6,2 birlik


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, (yanvar-mart holatiga ko'ra, % da)

2024-yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi 56,4 % ni tashkil qildi. (2023-yilning yanvar-martida 62,5 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi -6,1 ga kamaydi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	21,8	94,5	66,2	68,9
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	26,3	94,2	66,1	35,1
Xonobod sh.	11,8	99,0	71,6	74,0
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko‘l	36,4	86,6	72,1	78,8
Andijon	79,7	94,2	70,6	89,5
Baliqchi	85,4	98,0	66,4	98,2
Bo‘ston	47,7	99,0	64,7	51,2
Buloqbooshi	100,0	94,7	59,2	97,6
Jalaquduq	68,8	76,9	71,8	98,2
Izboskan	100,0	98,3	71,4	90,9
Ulug‘nor	84,5	82,4	64,6	97,9
Qo‘rg‘ontepa	61,3	96,2	54,4	83,5
Asaka	1,5	96,0	64,1	16,2
Marhamat	35,5	99,1	74,3	39,8
Shahrixon	83,1	96,9	57,6	98,4
Paxtaobod	30,3	99,0	59,3	95,8
Xo‘jaobod	60,3	97,2	74,0	76,9

Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi eng ko‘p:

Sanoatda-

Buloqbooshi (100 %),
Izboskan (100 %),
Shahrixon (83,1 %),
Andijon (79,7 %),
Baliqchi (85,4 %),
Ulug‘nor (84,5 %),
Xo‘jaobod (60,3 %) tumanlarida


Qurilishda-

Xonobod sh. (99,0 %),
Marhamat (99,1 %),
Paxtaobod (99,0 %),
Izboskan (98,3 %),
Baliqchi (98,0 %),
Xo‘jaobod (97,2 %)
Bo‘ston (99,0 %) tumanlarida


Xizmatlarda-

Marhamat (74,3 %),
Xo‘jaobod (74,0 %),
Andijon (70,6 %),
Oltinko‘l (72,1 %),
Jalaquduq (71,8 %),
Xonobod (71,6 %)
Izboskan (71,4 %) tumanlarida

2024-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 100,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 37,1 foizini tashkil etdi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da
2024-yil yanvar-mart holatiga*




2024-yil yanvar-mart oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Buloqboshi tumanida – 100,0 %, Izboskan tumanida – 100,0 %, Andijon tumanida – 89,7 %, Jalaquduq tumanida – 85,2 %, Bo'ston tumanida – 82,7 %, Shahrixon tumanida – 80,6 %, Ulug'nor tumanida – 77,8 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Xonobod shahrida – 2,2 % ni tashkil etdi.

*dastlabki ma'lumot

2024-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 156,0 million AQSh dollarini yoki umumiy import hajmining 18,1 foizini tashkil etdi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2024-yil yanvar-mart oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida – 100,0 %, Izboskan tumanida – 100,0 %, Ulug'nor tumanida – 100,0 %, Shahrixon tumanida – 99,9 %, Jalaquduq tumanida – 100 %, Paxtaobod tumanida – 100 % va Bo'ston tumanida 100,0 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 0,7 % ni tashkil etdi.




2024-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 786,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2024-yilning yanvar-martida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, (mlrd. soʻm)




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (620,5 mlrd. soʻm), Baliqchi tumani (611,9 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (377,5 mlrd. soʻm), Qoʻrgʻontepa tumani (441,2 mlrd. soʻm) va Xoʻjaobod tumani (330,1 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keladi. Boʻston tumanida (71,5 mlrd. soʻm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past boʻlib qolmoqda.



2024-yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 21,8 foizni tashkil etdi.



2024-yil yanvar-mart holatiga tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqbooshi (100,0 %), Izboskan (100,0 %), Shahrixon (83,1 %), Andijon (79,7 %) Baliqchi (85,4 %), Ulug'nor (84,5 %) va Jalaquduq (68,8 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (1,5 %) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2024-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 4 658,4 mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 93 foizini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 110,4 foizni tashkil qildi.



2024-yilning yanvar-martida tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘ati




Tuman va shaharlar bo‘yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (1 208,5 mlrd. so‘m), Shahrixon tumani (438,9 mlrd. so‘m), Asaka tumani (481,0 mlrd. so‘m) va Andijon tumani (408,6 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi.



2024-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1 397,8 mlrd. soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 94,5 foizini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 109,3 foizni tashkil qildi.




2024-yilning yanvar-martida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (481,5 mlrd. soʻm), Andijon tumani (166,4 mlrd. soʻm), Shahrixon tumani (118,6 mlrd. soʻm), Marhamat (71,3 mlrd. soʻm) hamda Izboskan tumanlarida (67,0 mlrd. soʻm) qayd etildi.


2024-yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 880,0 mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 66,2 foizini tashkil qildi. 2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 12,3 foizga oʻsdi.



2024-yilning yanvar-martida tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʼati




Tuman va shaharlar boʻyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Andijon shahri (1 478,8 mlrd. soʻm), Andijon tumani (244,3 mlrd. soʻm), Asaka tumani (241,9 mlrd. soʻm), Baliqchi tumani (202,7 mlrd. soʻm) va Izboskan tumani (193,7 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keladi.




2024-yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,2 foizni tashkil etdi. 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 foizni tashkil qildi.


2024-yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 79,9 foizni tashkil etgan bo'lib, 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 foizni tashkil qildi.



2024-yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 97,1 foizni tashkil etib, bu esa 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 103,3 foizga ko'payishiga olib keldi.



2024-yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,8 foizni tashkil etib, 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 104,4 foizga ko'payish kuzatildi.



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Korxonona – huquqiy shaxs huquqiga ega bo'lgan, mulkchilik huquqi yoki xo'jalikni to'la yuritish huquqi bo'yicha o'ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish asosida mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan yoki mahsulotni ayirboshlaydigan, ishlarni bajaradigan, xizmat ko'rsatadigan, bellashuv hamda mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi sharoitida amaldagi qonunlarga muvofiq o'z faoliyatini ro'yobga chiqaradigan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Korxonaning faoliyatini tahlil qilish – uning asosida korxonona faoliyatini har tomonlama o'rganish. Natijada, ma'lumot to'plashning ma'lum usullaridan foydalanish orqali korxonona faoliyatini baholash va zaif tomonlarini aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni olish.